

JAHON QAHRAMONLIK EPOSLARI TASNIFI

G'afforova Madinabonu Elbek qizi

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotasiya: Maqolada jahon qahramonlik eposlari haqida fikr yuritilgan. Antik davrdagi va o'rta asrlardagi G'arb va Sharq qahramonlik dostonlarining yaratilishi va ularga xos bo'lgan xususiyatlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: epos, qahramonlik eposlari, xalq og'zaki ijodi, antik davr, doston, qahramon.

Annotation: In the article, ideas about the world heroic characters are mentioned. In the medieval time and in the middle west and east heroic novels' formulation and the aspects referring to them are also outlined.

Keys words: epic, heroic epics, folklore, antiquity, epic, hero.

Epos - (yunoncha "epos" -rivoya, hikoya). Keng ma'noda badiiy adabiyotning uch turidan biri. Tor ma'noda xalq og'zaki ijodida she'riy yoki nasriy yo'lda yaratilgan xalqning qahramonona o'tmishini aks ettiruvchi voqeaband asar.

Qahramonlik eposlari ilk bor og'zaki adabiyotda vujudga kelgan. Ularda turli xalqlar va millatlarning paydo bo'lish jarayonlari, vatan himoyasi yo'lida kurashgan qahramonlarning jasoratlari o'z aksini topgan. Bunday dostonlarda urush tasvirlari muhim o'rin tutadi.

Dastlab eposning eng qadimiy namunasi sifatida akkadlarning dostonlari sanalgan. Ammo keyinchalik barcha turkiy xalqlarga tegishli deb hisoblangan "Gilgamish" dostoni eng qadimiy epos deb hisoblangan. Hindlarning "Mahabharat" va "Ramayana", o'zbeklarning "Alpomish" va "Go'ro'g'li", Homerning "Illiada" va "Odissey", qirg'izlarning "Manas", nemislarning "Nibelunglar haqida qo'shiq", ispanlarning "Sid haqida qo'shiq", fransuzlarning "Roland haqida qo'shiq", armanlarning "Sosunli Dovud" kabi asarlari xalq qahramonlik eposiga mansubdir. Gegel o'zining "Estetikaga oid ma'ruzalar" asarida Dantening "Ilohiy komediya" hamda Firdavsiyning "Shohnoma" asarlarini eposga mansub deb hisoblagan. Sharq eposiga Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang", Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa"larni ham kiritish mumkin.

Antik adabiyot janrlari ichida qahramonlik eposlari eng asosiy o'rin tutgan. Qadimgi yunonlarda qahramonlik dostonlari yoddan biladigan, aytib beruvchilar bo'lgan. Ular dostonlarning minglab satrlarini yoddan

bilgan. Antik davr shoiri Homer ana shunday doston aytuvchilarning eng oxirgisi, ya'ni dostonchilikni boshlab bergan xalq dahosi hisoblangan. U yunon adabiyotining eng qadimgi yozma yodgorliklari hisoblangan, ikki o'lmas epos - "Illiada" va "Odisseyda"ni yaratdi.

O'rta asrlarda qahramonlik eposlarining eng noyob namunalari yaratilgan. Ilk o'rta asrlarda anglosaksonlar tomonidan "Beovulf" dostoni, Frandiyada feodal munosabatlar davrida "Roland haqida qo'shiq", Ispaniyada "Sid haqida qo'shiq", Germaniyada "Nibelunglar haqida qo'shiq" kabi qahramonlik eposlari yaratildi. Bu asarlarda davr muhiti o'z ifodasini topgan bo'lib, sodir bo'lib o'tgan voqealar poetik shaklda, badiiylashtirib berilgan. O'rta asrlarda qahramonlik va qahramon shaxsi haqidagi tasavvurlar antik davrga nisbatan o'zgargan. Qadimgi yunonlar qahramonlar haqidagi tasavvurlarini ma'budlar va ularning farzandlari bilan bog'lagan bo'lsalar, o'rta asrlarga kelib mifologik tasavvurdan real hayotga nisbatan qarash kuchaydi. Bu davrda o'z vatani va qiroliga sodiq bo'lgan jasur kishi eposlarining qahramoni qilib olindi.

O'zbek adabiyotidagi qahramonlik dostonlarining eng qadimiylaridan biri - "Alpomish". U qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida vaziyat taqozosi bilan bo'linib ketgan qadimiy bir o'zbek urug'ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g'oyalari, uning qahramonona shon-shuhrati va istiqboli, el-yurt farovonligi, oila baxti va Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan.

Xulosa qilib aytganda, epos uni yaratgan xalqning qahramonona o'tmishi, yurt taqdiridagi muhim voqealar, qahramonlarning el-yurt uchun fidokorona kurashi haqida hikoya qiladi, xalqning madaniyati, maishiy turmushi, ijtimoiy siyosiy hayoti, e'tiqodi va urf-odatlarining muayyan davrdagi yaxlit manzarasini tasvirlaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.U.Hamdamiyov.A.Qosimov.Jahon adabiyoti.O'quv qo'llanma.-Toshkent:."Barkamol fayz media"-2017
- 2.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Epos>
- 3.Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: AKADEMNASHR, 2013.